

O'RTA OSIYONING BRONZA DAVRI MANZILGOHLARI

Jalolov Iskandar O'tkirbek o'g'li

Sobirjonova Zulayho Sodiqjon qizi

Qo'qon universiteti, Andijon filiali Tarix yo'nalishi 1-bosqich talabalari

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17935451>

O'rta Osiyo hududi insoniyat tarixining eng qadimgi sivilizatsiya markazlaridan biridir. Miloddan avvalgi III-II ming yilliklarni o'z ichiga olgan bronza davri bu hududda ishlab chiqarish xo'jaligining shakllanishi, dastlabki shaharsozlik, yirik qishloqlar va qo'rg'onlarning paydo bo'lishi bilan xarakterlanadi. Ayniqsa, Janubiy Turkmaniston, Janubiy O'zbekiston va Qizilqum vohasi bronza davri madaniyatlarining shakllanishida muhim o'rin tutgan. Bronzaning kashf etilishi ibtidoiy jamoa xo'jaligida buyuk o'zgarishlarga olib keldi. Bu insoniyatning iqtisodiy hayotigagina emas, balki siyosiy, madaniy, ma'naviy hayotida ham tub o'zgarishlar yasadi. Bronzaning tarkibi mis va qalay qorishmasidan iborat bo'lgan. Eng yaxshi bronzaning tarkibida 90 % mis va 10 % qalay bo'lgan. U dastlab miloddan avvalgi III ming yillik oxirlarida Mesopatamiyada (ikki daryo oralig'ida) kashf etilgan. Bronza qurollar qattiq va ularga ishlov berish oson bo'lganligi uchun mis qurollarni siqib chiqardi. Shuningdek bronza misga nisbatan past haroratda erigan. Mis 1084 gradus haroratda erisa, bronza 700-900 gardusda erigan. Uning bunday past haroratda erishi, uning har bir xo'jalikda qurollar yasash imkonini bergan. Bu esa mehnat, jangovor qurollarning turi ko'payishiga va samaradorligining oshishiga olib kelgan. (Egamberdiyeva N. A., 2022, 70-71-betlar).

Bronza maxsus qalin sopol idish-tigellarda eritilib, sopol qoshiqlar orqali tosh va sopoldan yasalgan qoliplarga solingan. Bronza qoliplarga yopishib qolmasligi uchun qoliplarga mumiyo surtilgan va bronza qolipdan oson ajralgan. Jahon tarixida bronza davri miloddan avvalgi III ming yillik oxirlaridan boshlanadi. (Egamberdiyeva N. A., 2022, 70-71-betlar)

Katakomba mozor-qo'rg'onlari go'rlari yon tomoniga o'yib qazilgan alohida lahad shaklidagi qabrlardir. Bu mozor qo'rg'onlardan bronza, mis-pichoqlar, to'nag'ichlar, bigiz, cho'qmorlar, chaqmoqtosh, nayza, o'q va pichoqlar, sopol idishlar ko'plab topilgan, bu sopol buyumlarning aksaryatini tagi tekis va hatto boshqashakllari ham uchraydi. Katakomba davri miloddan avvalgi III ming yillikning oxirlaridan II ming yillikning I yarmigacha bo'lgan davni o'z ichiga oladi. Katakomba mozor-qo'rg'onlaridan erkaklar va ayollar murdalari topilgan. Ko'plab kollektiv qabrlar ham uchraydi.

Andronovo madaniyati – bronza davri chorvador qabilalari madaniyati bo'lib, bu madaniyatga tegishli dastlabki yodgorlik o'tgan asrning 20-yillarida Sibiriyaning Achinsk shahri yaqinidagi Andronovo qishlog'idan topib o'rganilgani uchun shu nomni olgan. Bu madaniyatga tegishli jamoalarning ayrim guruhlariga hatto o'z podasiga bo'sh yaylovlar qidirib miloddan avvalgi II ming yillik o'rtalarida O'rta Osiyo hududlariga ham kirib keladi. Xorazmda va Farg'ona hududlarida o'z moddiy madaniyat izlarini qoldiradilar. Kavkazning tabiiy sharoiti bronza davri xo'jaligi, dehqonchilikva chorvachilik uchun qulay bo'lganligi uchun ham bu yerda ko'plab qabilalar o'zlarining madaniyatini vujudga keltirgan. Kavkazorti madaniyati Old Osiyo madaniyatiga yaqin. (Islomov O'. N., 2013, 83-84- betlar)

Chust qabilalari tomonidan tosh qurollar keng qo'llanilgan. Ular barcha makonlarda ko'plab uchraydi. Dalvarzintepadan 1500 tosh qurol topilgan. Tosh qurollar xo'jalik va maishiy hayotda ko'p qo'llanilgan bo'lsada, u yordamchi xarakter kasb etgan. Yer ishlash uchun trapetsitya ko'rinishidagi motigalar topilgan. Dalvarzintepadan 400 ta o'roqsimon pichoqlar

topilgan. Bunday qurollar O'zbekiston janubidagi Kuchuktepadan ham topilgan. Chimboy, Tergovchi, Chust, Dalvarzintepadan oq va qora toshdan qilingan qurollar ham topilgan. Toshidan, shuningdek yorg'uchoqlar, taqinchoqlar ham qilingan. Ishlab chiqarishda suyak qurollar muhim o'rin tutadi. Ayniqsa, to'qimachilikka va o'q uchlari yasashda suyakdan keng foydalanilgan. Chust madaniyatiga oid sopol idishlar bir xilligi bilan ajralib turadi. Sopol idishlarning asosiy qismi qo'lda yasalgan. Lekin Chust va Dalvarzintepadan kulolchilik charxida yasalgan sopol buyumlar ham topilgan. Sopol idishlardan ko'zalar ham mavjud. Ayrim idishlarga tutqichlar ham qilingan. (Raxmanov R. A., 2009, 65 – 66 – betlar)

Chust madaniyatining xo'jaligi dehqonchilik – chorvachilikni tashkil etgan. Dehqonchilik Farg'ona vodiysida Chust madaniyatidan oldingi davrda paydo bo'lgan. Chust madaniyati davrida vodiylar keng o'zlashtirilgan edi. Yirik makonlarning mavjudligi madaniy qatlamning qalinligi, moddiy madaniyatning yuqori darajasi dehqonchilik ancha rivojlanganligini ko'rsatadi. Qadimgi dehqonlar bug'doy, arpa, tariq ekanlar. Chustdan topilgan tariq urug'lari dehqonchilikda tariq ko'p ekanligini ko'rsatadi. Don va boshqa qishloq xo'jalik mahsulotlarini saqlash uchun o'ralar qazilib, ularda 200 kg dan 1 tonnagacha, katta o'ralarda 2 tonna va undan ko'proq ham don saqlanishi mumkin bo'lgan. Donni bunday saqlash usuli faqat Farg'onaga xos bo'lib, bu usul bronza davrida Turkmaniston va Xorazmda mavjud bo'lmagan. Dehqonchilikda yer haydash uchun yirik tosh motigalardan foydalanilgan. Shuningdek, bu sohada o'roqsimon pichoqlar, qo'l yorg'uclari topilgan. Ko'rinib turibdiki dehqonchilik qurollari kam saqlangan. Yovvoyi hayvonlar suyaklari kam topilgan. Sayg'oq, qulon, jayron, yovvoyi cho'chqa, kiyik suyaklari, baliq suyaklari Chust va Dalvarzintepadan topilgan. Mazkur xo'jalik sohalari yordamchi xo'jalik hisoblangan. Hunarmandchilik ham taraqqiy etgan. Bronza hunarmandchiligi uchun xom ashyo Farg'ona tog'laridan olingan. Aholining muhim mashg'ulotlaridan biri to'qimachilik bo'lib uning xom ashyosi jun va tolali ekinlar bo'lgan. Metall ishlab chiqarish ham rivojlangan sohalardan hisoblangan. Qurilish sohasi rivojlanganligini ko'rsatadi. (Raxmanov R. A., 2009, 65 – 66 – betlar).

Xulosa qilib aytganda, O'rta Osiyoning bronza davri manzilgohlari mintaqah tarixida muhim bosqich bo'lib, bu davr jamiyatlarining xo'jalik, ijtimoiy va madaniy taraqqiyot darajasini yaqqol aks ettiradi. Janubiy Turkmaniston, Buxoro vohasi, Surxondaryo, Qashqadaryo, Farg'ona vodiysi va Janubiy Orolbo'yi hududlarida topilgan. Sopollitepa, Jarqo'ton, Gonur, Nomozgoh, Qo'shtepa kabi manzilgohlar aholining dehqonchilik, chorvachilik va hunarmandchilik bilan muntazam shug'ullanganini ko'rsatadi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

- 1 Raxmanov R. A. O'zbekiston Arxeologiyasi. – Toshkent: O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi, 2009.
- 2 Egamberdiyeva N. A. Arxeologiya. – Toshkent, 2022.
- 3 Islomov O'. N. Arxeologiya asoslari. – Toshkent: Fan nashriyoti, 2013.